

**NAQSHBANDIYA – MUJADDIDIYA TARIQATI SILSILASINING OLTIN
ZANJIRI VAKILI SHAYX XALIFA ESHMUHAMMAD ESHON QUDDISA
SIRRUHUNING ZIYORATGOHLARI TARIXI**

Sevaraxon Karimova Ilxomjon qizi
Islomshunos, manbashunos va tarixchi
Telefon: 93-114-73-93; 93-988-37-67

Annotatsiya: Ushbu maqola Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirruhuning ziyoratgohlari "Parpi ota", "Qorixona", "Chilmahram", "Saroyxonaqohpirim" va "Sarmozor gumbarz maqbarasi" to'g'risida. Xalqimiz bunday aziz – avliyolar, tariximizda yaxshilik, ezgulik, marifat ishlarini qoldirgan mo'tabar insonlarning poyi xoklarini asrab – avaylab kelmoqda. Eng muhimi ziyoratgohlarning barchasida zilol, shifobaxsh buloqlar, bu buloqlar atrofida so'lim tabiat go'shalari tashkil topgan.

Kalit so'zlar: avliyo, xalifa, eshon, ziyoratgoh, qorixona, chilmaxram, maqbara, tarix.

Abstract: This article is about Hazrat Shaykh Khalifa Eshmuhammad Eshon Quddisa Sirruh shrines "Parpi ota", "Korikhona", "Chilmahram", "Saroykhanokahpirim" and "Sarmozor gumbarz mausoleum". Our nation has been protecting the legacy of such saints, dignified people who left behind good, noble and enlightened works in our history. The most important thing is that in all the shrines there are beautiful, healing springs, and around these springs there are peaceful nature corners.

Keywords: saint, caliph, eshan, shrine, chilmakhram, tomb, history.

Аннотация: В данной статье речь идет о святынях Хазрата Шайха Халифы Эшмухаммада эшона куддиса сирруху «Парпи ота», «Корихона», «Чилмахрам», «Саройханокахтирим» и «мавзолее Сармозор гумбарз». Наш народ хранит наследие таких святых, достойных людей, оставивших после себя добрые, благородные и просвещенные дела в нашей истории. Самое главное, что во всех святынях есть красивые целебные источники, а вокруг этих источников – умиротворяющие уголки природы.

Ключевые слова: святой, халиф, эшан, святыня, святыня, чилмахрам, гробница, история.

Tarixdan yaxshi ma'lumki, Movaraunnahr, Turon, Turkiston ya'ni O'zbekiston azaldan islom sivilizatsiyasi maydoni markazi bo'lib kelgan va bu zamindan yetishib chiqqan peshqadam avliyo – yu, ulamolar, fuzalo – yu, olimlar hamda yetakchi sarkardalar jahon ilm – fani taraqqiyoti rivojiga doim munosib hissa qo'shib kelgan. Isbot sifatida Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Dorimiy, Imom Moturidiy, Burxoniddin Marg'inoniy, az – Zamahshariy, Ibn Sino, Beruniy, Farobiy, Ahmad al – Farg'oniy, Al – Xorazmiy, Alisher

Navoiy, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Mirzo Bobur, Abul Muin an – Nasafiy, Qaffol Shoshiy Hakim at – Termiziy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband va boshqalar. Alloh nazar solgan yurt O‘zbekiston – islom olami pirlarining diyorida.

Naqshbandiya – mujaddidiya tariqati silsilasining oltin zanjiri vakili Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon 1780 – yil Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahar Beshariq tumani Chorvoqturong‘i qishlog‘i Abdumannof maxsido‘z oilasida tavallud topgan. Shayx Eshmuhammad xalifaning ajdodlari dadasi Abdumannof, otasi Sayidali, bobolari Akbarali, bobokaloni Nuriddinbek ajdodlari “Xulafo ar – roshidin”, Choryorlardan biri Hazrat Ali (r.a)ning do‘sti Ahtam sahobaga yetib boradi[1].



Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad
eshon quddisa sirruhuning
ajdodlaridan Ahtam sahoba
haqidagi rivoyatlar manbasi: Doston
1325 hijriy 1907 milodiy yilda chop
etilgan titul varaqi nusxasi:



^a Naguib al-Sadat ab-Isahag al-Halbiy; tidligere hertogdomet i Marokko Othman al-Nagib al-Halbiy; tidligere hertogdomet i Marokko Othman al-Nagib al-Halbiy.

Mezhar Shojira-plakati Hazrat Shoyx Xatifa Esmuhammad Eshonning baxshlari Severxan Karimova Ilhonjon qizi tomonidan to'plangan ho'jrgi arifdilar haqidagi "U'lumotlar asosida" tuzilib o'qilgan va xalqaro miqosda nashr etilgan.

Abu Hurayra (ra)dan rivoyat qilinadi: "Qarindoshlaringiz bilan rishtalarni bog'lashingiz uchun nasablaringizni o'rganing. Chunki alla-rahim olibb qarindoshlar o'rtasidagi mehnatni ko'ngiltadi, bo'xlikni ko'ngiltadi va umralni uzayttadi"

Ulmom Ahmad va Termiziy rivojlati





لقائمة السادة الأشراف آل البيت
Maqamat al-Sadat al-Ashraf al-*Ahl-i-Bayt*^(*) wa-Iqtiraf bi-lashams
Turkuya-Misir-Malaysiya
Grand format: 67x90 cm - 28x36 in. - 2025 - 2025 n. 1000

Hozirda Qo‘qon adabiyoti muzeyida Shoir G‘aribiy o‘zining tahallusi bilan tuzgan “Devoni” va “Bayoz”i hamda she‘riy to‘plamlari qo‘lyozmalari saqlanmoqda. Bu asarlarida ham Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon haqida yana ma‘lumotlar uchrashi mumkin. Qo‘qonning Olamahak hududidan Muhammad Ali eshon ham Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon atab “Ming bir hikmat” yozadi, bu kitob uning o‘g‘li Mullamo‘yiddindan o‘g‘li Normatga o‘tgan, so‘ng uning o‘g‘li Sayidahmad esa “Ming bir hikmatni” Chustlik yo Xo‘jaobodlik bir imomga 1 ta molning puliga sotib yuborganligi, “Ming bir hikmat”ni Haydarali xofiz Mirhannom o‘g‘li kuylab yurganligi to‘g‘risida ma‘lumotlarini Shayx Xalifa Eshmuhammad eshonning 4 – avlodi Nazrulla eshon takidlagan[2].

I.Ostonaqulov o‘zining Farg‘onalik valiyar nomli monografiyasida(2001) Shayx Xalifa Eshmuhammad eshonning ijodidan “Oshiq qo‘llar murabbosi” g‘azalini sharxlab bu valiy zotni “Dastagul”, “Eshqul xalifa” tahalluslari bilan ijod qilganligini takidlab o‘tgan. Shayx Eshmuhammad xalifani “Eshmat xalifa” tahallusi ham bo‘lgan. Ikromiddin Ostonaqulovning “Naqshbandiylik odamiylik silsilasi” monografiyasida “Xalifa Eshmuhammad xalifa Husaynning pirlaridan biri bo‘lib, Buxoroda Muhammad Amin qo‘llarida ta‘lim olganlar. Xalifa Eshmuhammad haqidagi ma‘lumotlar xalifa Husayn haqidagi manobqlari orqali yetib kelgan” – deb keltirilgan[3].

Abdulaziz Majzub Namongoniy “Pir – u, pironlar” g‘azalida Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon(q.s)ni o‘zining tariqatda kamolga yetib, suluk tebratishiga ijozat bergan piri ekanligini takidlagan. Hozirda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan Abdulaziz Majzub Namongoniyning fors tilida yozgan “Tazkirat ul – avliyo Majzub Namongoniy” asarida Hazrat Abdulaziz Majzub Namongoniy o‘zining pirlari Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon(q.s), Hazrat Shayx Sharif Xoja eshon(q.s), Hazrat Shayx Xalifa Muhammad Amin(q.s), Hazrat Shayx Xoja Musoxon Dahbediy haqida takidlagan. Abdulaziz Majzub Namongoniyning “Tazkirat ul – avliyo Majzub Namongoniy” asarida quyidagi ma‘lumotlar mavjud:





Shayx Abdulaziz Majzub Namongoniyning silsilasiga oid bo'lgan qo'lyozma Irshod hujjati ul zotning avlodi Anvar Ahmaddan olingan bo'lib, mazkur hujjatning nusxasi va tarjimasini ansobshunos va manbashunos Sayyid Ilhomxon Bahodir Sayyidatoyi Razzaviy Husayniy Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirrihuning 6 – avlodi Sevaraxon Karimova Ilhomjon qiziga taqdim qilgan. Mazkur qo'lyozmada, ya'ni Naqshbandiya – majzubiya tariqati Irshod hujjatida: Hazrat Musoxon Dahbediyga yetib keldi. (Alloh rahmat qilsin), ul zotdan Hazrat Xalifa Muhammad Siddiqqa va Muhammad Amin Xalifaga ham nisbat berdilar, Xalifa Muhammad Siddiqdan Hazrat Xalifa Muhammad Husayn Buxoriyga yetib keldi. Xalifa Abdulaziz Majzub Namongoniy, Xalifa Muhammad Aminning suhbatida bo'ldi. Xalifa Abdulaziz Majzub avvalo ikki xalifalardan, Mirzo Bobobek va Xalifa Eshmuhammad zotlarni xizmatiga bel bog'ladilar. Ulardan ijozalarini olibgina Xalifa Muhammad Husayn Buxoriy xizmatiga bordilar. Mazkur qo'lyozma nusxasi va tarjimasini quyida keltiriladi:



Naqshbandiya-mujaddidiya-majzubiya tariqati IRSHOD hujati
Bismillahir Rohmanir Rohim

AlhamduliLlah Robbi alamin, val 'aqbatul muttadin, Assalatu vassalamu 'ala Muhammadin va ahli va as'habih aynin. Ammo ba'd. Hidayat qiluvchiga hidoyat qilinuvchilardan. Bizlar Seni doimo maqtaymiz. Sen bizning Egamizsan. Hamma narsaning egasi Yaratganing yaqin do'sti va yaqin kishi bo'lmish Habbiga maqtovlatimiz. Uning avlodlariga, yaxshi kishilar oldida Uning yordami, Uning rahmatiga sazovor bo'lishi uchun filimiz maqtovdadir. Ushbu qo'ldan qo'lga o'tib kelguvchi xat, irshod, ulug' ulamlar yashagan paytni ko'rsatguvchi sanalari, ular yurgan yo'lini maqtovlar bilan to'ladir. O'sha ulug' shayxlarga bizlarning maqtovlatimiz bo'lsinki, ular joriy tariqatga talloqlidirlar. Bularning yo'li sharofati tabaqadan bo'lmish Xojagon Oliy Janobni kufiya maqtovga loyiq yo'ldir. Alloh ul zotni sirini muqaddas qilsin. Ul zot shunday noyob manbaadan nur olganini, uning sirini, hikmati Hazrati payg'ambarlarning sayyidi, Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallama va ul zot avlodlarga musulmonlarni eng etzal salovatini bo'lsin. Ibadat qiluvchilarning, sahobalarning avvali, hammaga ma'lum hazrati Abu Bakr Siddiq roziallohu anhudan kelgusi zotlarga nuri ilm o'ta boshlandi. Keyingilarga nuri rahmat ul Zotdan yetib keldi, ul zotdan so'ng Salmon Forsiy roziallohu anhuga, ul zotdan Qosim ibn Abu Muhammad Siddiqqa, ul zotdan Imom Ja'far Sodiq va imom Nodiqqa, ul zotlardan so'ng Abu Yazid Bastoniya (Alloh sirini muqaddas qilsin), ul zotdan some'lik (ingilashini o'rgandilar, ul zotdan Abul Hasan Haraqoriyga yetib keldi, undan so'ng Abulqosim Gurgoniya yetib keldi, ul zotdan Xoja Ali Farnadiyga, ul zot tariqatini olib, o'z atrofiga jamoalar to'plashga kiritishdilar, xalifalik va muridlik yo'llarini ul zot Xoja Abu Yusuf Hamadoniya, ul zotdan Xojayi Jahon Abdulvoliq G'yduvoniya yetib keldi, ul xazratdan Xoja Onif Revgariy ma'rufi Mohitabonga, undan so'ng Xoja Mahmud Anjir Fag'naviyya, ul zotdan Xoja Ali Romitaniy Azizonga pokligicha yetib keldi, ul zotdan Xoja Muhammad Boboyi Sammosiyya, so'ng Sayyid Amir Kulolga yetib keldi, ul zotdan Xoja Bahouhaq vad-din Naqshband Buxoriyga (Alloh sirini muqaddas qilsin) yetib keldi, shayx Attor ul zotdan erkinlik va oliy inqomni meros qilib oldi, ul zotdan Mavlono Yaqub Chariyya, ul zotdan Xoja Ubaydulloh Ahror Veliy sirini kashf qiluvchiga yetib keldi, undan so'ng Mavlono Muhammad Zohidga, ul zotdan Mavlono Muhammad Darveshga ham nisbat berdilar, ul zotdan Xoja imkanagiyya, undan so'ng Xoja Muhammad Boqbiloh oldilar, ul zotdan Mujaddid Ali Soniy Imom Rabboniyya ham nisbat berdilar (Alloh sirini muqaddas qilsin), ul zotdan Muhammad Ma'sumga yetib keldi. Xoja Abdulahad maxdum o'sha ulug' zotlarga ona tarafidan yaqinlashadi. Amakisi hamma uchun yagona tayanch, o'z avlodiga mehriboni, yori Muhammad Ma'sumdan ruxsat olganlar, ul zotdan ulug' nufi va nuri Hazrat Xoja Miyon Obidga yetib keldi, ul zotdan Hazrat Musovon Dahbediyga yetib keldi. (Alloh rahmat qilsin), ul zotdan Hazrat Xalifa Muhammad Siddiqqa va Muhammad Amin Xalifaga ham nisbat berdilar, Xalifa Muhammad Siddiqdan Hazrati Xalifa Muhammad Husayn Buxoriyga yetib keldi. **Xalifa Abdulaziz Majzub Namangoniyy**, Xalifa Muhammad Aminning suhbatida bo'ldi. Xalifa Abdulaziz Majzub avvallo ikki xalifalardan, Mirzo Bobobek va **Xalifa Eshmuhammad** zotlarini xizmatiga bel bog'ladilar. Ulardan ijoralarini olibgina Xalifa Muhammad Husayn Buxoriy xizmatiga bordilar. Bu bog'lanish bilan ruxsatga nisbat berilib, ruxsatlarini topib, Shayx ul-islam Zokirxoja eshon va Hazrat Mavleviy Namangoniyy zotlar Hazrat Oloqoqjamning xalifalarini ham ruxsatini topdilar. Xazrati xalifasi eshonlarga murid bo'lgan Xalifa Abdulaziz ul zotning zavqini Alloh ziyoda qilsin, shayx va muhabbatlarini fuqarolarga ko'proq qilsin, Xudo inoyati ila Xalifa Xolmuhammad Chustiyning to'rt sulukiga ruxsat berdilar.



NAQSHBANDIYA-MUJADDIDIYA TARIQATI SILSILASINING OLTIN ZANJIRI



Hazrati Muhammad
Mustafo (sav)

Salmon Forsiy
(r.a.) 2

Abu Bakr Siddiq
(r.a.) 1

Hazrati Ali
(k.v.) 1

Imom Husayn
(r.a.) 2

Imom Zaynulobidin
(r.a.) 3

Qosim ibn Muhammad
ibn Abu Bakr (r.a.) 3

Imom Ja'far Sodik
(r.a.) 4

Imom Muhammad
Boqir (r.a.) 4

Hazrat Boyazid Bastomiy
(q.s.) 5

Hazrat Shayx Abul Hasan
Haraqoniy (q.s.) 6

Shayx Abul Qosim
Gurgoniy (q.s.) 7

Hazrat Shayx Abu Ali
Farmadiy (q.s.) 8

Shayx Xoja Yusuf
Hamadoniy (q.s.) 9

Hazrat Xoja Abdulxoliq
G'ijduvoniy (q.s.) 10

Hazrat Shayx Xoja Orif
Revgar'y (q.s.) 11

Shayx Xoja Mahmud
Anjir Fag'naviy (q.s.) 12

Hazrat Shayx Xoja Ali
Romitaniy (q.s.) 13

Hazrat Shayx Xoja Bobo
Sammosiy (q.s.) 14

Hazrat Shayx Sayyid
Amir Kulol (q.s.) 15

Hazrat Xoja Bahouddin
Naqshband (q.s.) 16

Shayx Xoja Alouddin
Attor (q.s.) 17

Shayx Mavlono Ya'qub
Charxiy (q.s.) 18

Shayx Xoja Ubaydullo
Ahror Valiy (q.s.) 19

Shayx Mavlono Xoja
Zohid (q.s.) 20

Shayx Mavlono Darvesh
Muhammad (q.s.) 21

Hazrat Shayx Xoja
Imkanagiy (q.s.) 22

Hazrat Shayx Xoja
Boqibilloh (q.s.) 23

Shayx Xoja Imom
Rabboniy Mujaddidi (q.s.) 24

Hazrat Shayx Muhammad
Ma'sum (q.s.) 25

Hazrat Shayx Abdulahad
(q.s.) 26

Hazrat Shayx Miyon
Muhammad Obid (q.s.) 27

Hazrat Shayx Xoja
Musoxon Dahbediy (q.s.) 28

Hazrat Shayx Sharif
Xoja Eshon (q.s.) 29

Hazrat Shayx Xalifa
Muhammad Amin (q.s.) 29

Hazrat Shayx Xalifa
Eshmuhammad (q.s.) 30

Hazrat Abdulaziz Majzub
Namangoniy (q.s.) 31

Hazrat Mirzo Tojixon
Eshon (q.s.) 31




نقابة السادة الأشراف آل البيت
"Naqabat al-Sadat al-Ashraf al-Ahl-Bayt" xalqaro birlashmasi
Turkiya-Misir-Malayziya
Qayd raqami: WFS-014/25. Sana: 16-aprel, 2025 milodiy
18-Shavvol, 1446 hijriy

Mazkur Naqshbandiya-mujaddidiya tariqati silsilasining Oltin zanjiri
uning hijriy 1318 yilda bitilgan asl qo'lyozma nusxasiga asosan
tarjima qilinib tuzilgan va xalqaro miqyosda tasdiqlangan.

"Naqabat al-Sadat al-Ashraf al-Ahl-Bayt" xalqaro birlashmasi va
Xalqaro Oltin Maros "Shayxarshonosi va Manbashonosi"
jamiyati bo'limining mutaxassisi, Markaziy Osiyodagi ishonchli vakili,
amolshtunos, manbashunos, doktor PhD, xalqaro ijodiy naqsh al-ashraf
Sayyid Ihomxon Bahodir Sayyidatoyi Razzaviy Husayniy

Hazrat Shayx Xoja Musoxon Dahbediyning avlodlaridan ansobshunos, manbashunos, doktor phd, xalqaro ijozali naqib al – ashraf Sayyid Ilhomxon Bahodir Sayyidatoyi Razzaviy Husayniy tomonidan hijriy 1318 – yilda tariqat silsilasining oltin zanjiri bitilgan qo‘lyozmaga asosan tahlil etilib tuzilgan va Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshonning 6 – avlodi Sevaraxon Karimova Ilhomjon qiziga taqdim etilgan manbaga ko‘ra Naqshbandiya – mujaddidiya tariqati oltin zanjirida Hazrat Shayx Xoja Musoxon Dahbediy quddisa sirrihuning xalifalari Hazrat Shayx Sharif Xoja Eshon va Hazrat Shayx Xalifa Muhammad Amin quddisa sirrihularning xalifasi Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad quddisa sirrihudan keyin o‘g‘li Hazrat Shayx Mirzo Tojixon Eshon quddisa sirrihu va shogirdi Hazrat Abdulaziz Majzub Namongoniy quddisa sirrihularning nomlari zikr etilgan. Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshonning faoliyatini o‘g‘li Hazrat Shayx Mirzo Tojixon eshon va avlodlari davom ettirdi[4]. Quyida mazkur qo‘lyozmaning asl nusxasi va tarjimasini:



Ba‘zi manbalarda Shayx Xalifa Eshmuhammad eshonning yana bir piri Muhammad Islom shayx ham bo‘lganligi kelgan. Ya‘ni Shayx Eshmuhammad xalifa piri Muhammad Islom shayx Karruxiyga qorixonasi(xonaqoh)da shogirdlikka tushib, ta‘lim olib, qisqa vaqtda xalifasi darajasiga erishadi. Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshonning pir(ustoz)i Muhammad Islom shayx o‘z davrida naqshbandiya – mujaddidiya tariqatida So‘fi Ollohyordan keyin silsilani davom ettirgan xalifasi G‘oyib Nazarning shogirdi edi. M.O‘.Amanov o‘zining Zarafshon vohasida tasavvuf silsilalari XV – XIX asrlar nomli



maqolasida Muhammad Islom shayx Karruxiydan kuyovi Ne‘matulloh Mahviy olgan degan. M.O‘.Amonov Eshmuhammad Xo‘qandiy nomli maqolasida Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon piri Muhammad Islom shayxdan ta‘lim olganligini, lekin piri Muhammad Islom shayx vafot etganidan so‘ng o‘rniga o‘tirgan kuyovi Ne‘matulloh Mahviydan ta‘lim olgan degan va silsilaga Ne‘matulloh Mahviy orqali bog‘lanishini aytgan. M.O‘.Amonovning So‘fi Ollohyor va Islom Shayx tarixi nomli risolasida(2017) naqshbandiya – mujaddidiya tariqati silsila zanjirida Ne‘matulloh Mahviy orqali Eshmuhammad xalifani Muhammad Islom shayxga bog‘lagan va keltirgan qo‘lyozma manbasida ismi Otash Muhammad Xo‘qandiy deb yozilgan. Aslida Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirruhu va Ne‘matulloh Mahviy ikkalasi ham Muhammad Islom shayxning shogirdlari bo‘lishgan, ya‘ni Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon Muhammad Islom shayxdan ta‘lim olib xalifasi darajasiga erishganligi sababidan naqshbandiya – mujaddidiya tariqati silsilasi zanjirida ham Muhammad Islom shayxga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lanishi kerak edi.

Rivoyatga ko‘ra: kunlarning birida pirlari izdixomda o‘tirib “Qo‘qon tuzi xo‘p totli – da” deganlar. Shunda Eshuhammad xalifa “Bu menga ishora” – deb darxol o‘rinlaridan turib Qo‘qon tomon yo‘lga tushgan va tuz koni(“Oq suqon” va “Qora suqon” Sirdaryo orti Asht tumani)dan 4 (1 chaksa – 5,33kg) chaksa tuzni yelkalab ketayotib yo‘lda suvsagan, charchagan ozgina mudroq bosib qarasalar g‘oyibdan tarvuz, 1 chapiya qatiq paydo bo‘lgan, ularni istemol qilgan va yayov tuz orqalab Karruxga yetib borganda yelkasi archilib ketganini ko‘rgan piri darhol yelkasini silab, duo qilganida Allohning izni ila jaroxati tuzalgan. Eshmuhammad xalifa 8 – 9 oyda bir necha yillar yurgan shogirdlardan ilgarilab ketib pirining xalifasi darajasiga erishadi va eshonlik irshodi(guvohnoma) oladi. Bunga tajjub bildirgan boshqa talabalarga qarata piri Muhammad Islom shayx Eshmuhammad xalifa haqida “Bu zot chirog‘ini piligini o‘zlari o‘rab kelgan ekan, men esa yoqib qo‘ydim xolos” – deb baho bergan ekan. Eshmuhammad xalifaga piri xati irshod (guvohnoma), 2 dona mo‘ylari, avrali beqasam chopon, silsila shajarasini berib, Qo‘qon, O‘sh to Chim Mochingacha so‘rashini aytib, avlodlaridan sayyidlardan – da ortiq kishilar chiqishini tilab duo qilibdi.

Hazrat Shax Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirruhuning 3 – avlodi Ibrohimjon eshon bo‘lib, avliyo zotlardan Sayyid Buzurukxon eshon qizini nikohiga olgan, avlodlari davom etmoqda. Sayyid Qosimxon o‘g‘li Sayyid Buzurukxon (1876 – 1953) va Sayyid Buzurukxon o‘g‘li Sayyid Karimxon(1903–1977)larning qabr(ravza)lari Toshkent viloyati Angiren shahar Ko‘chbuloqdagi ziyoratgohdadir. Naqshbandiya – mujaddidiya silsilasining oltin zanjiri vakili Shayx Xalifa Eshmuhammad eshonning katta o‘g‘li 1 – avlod Mirzo Tojixon eshon, 2 – avlod Mirzaabdulla eshon, 3 – avlod Ibrohimjon eshon, 4 – avlod Saodatxon, 5 – avlod Ilhomjon, 6 – avlod Sevaraxon(otasining onasining otasi tomonidan Shayx Xalifa Eshmuhammad eshonning avlodi, otasining onasining onasi tomonidan Sayyid Buzurukxonning avlodi, otasining otasi tomondan esa Turkiston qo‘rboshilaridan Po‘lat qo‘rboshining avlodlaridan).





Toshkent viloyati Ohangaron tumanidagi “Parpi ota”(“Avliyo ota”) ziyoratgohini aslida Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirruhu barpo qilgan. Parpi esa Shayx Xalifa Eshmuhammad eshonning murid(shogird)i bo‘lgan. Rivoyatga ko‘ra: ziyoratgohdagi ulkan harsangda insonning 5 ta panja izi bo‘lib, islom ummatiga 656 – 661– yillarda xalifalik qilgan Hazrat Ali(r.a)ning panja izlari deyishadi. Ziyoratgoh tepaligidagi ming yillik qatron daraxtlari esa bu zotning qamchi dastasi bo‘lib, shu joyni yo‘qotmaslik uchun qamchi dastasini yerga suqib, Dulduliga minib ketibdi, u o‘shib daraxt bo‘libdi. Islom tarixidan ma‘lumki Hazrat Ali(r.a) bu yerga kelmagan. Dastlabki faoliyatini bu tabarruk maskanda boshlagan Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirruhuning xizmatida murid(shogird)laridan Parpi, Patti, Darveshali, Nurmuhammad kabilar bo‘lgan. Shayx Xalifa Eshmuhammad qatron daraxtlari pastligidagi yerga hassasini suqib, shu joyni muridlari bilan kavlashda toshga ro‘para keladi, u toshni olib o‘rnatib qo‘yib, bu yerda Eshmuhammad xalifa o‘ziga muridlari bilan hujra quradi va shifo istab, ixlos qilib keluvchi aholini qabul qilib davolagan. Ziyoratgohdagi magnit maydoni, qatron daraxtlari, “Muqaddas teshik tosh”, “Mangu buloq” shifobaxsh bo‘lib, bu yerlik aholi va hayvonlar orasida o‘sha vaqtda tarqalgan turli yara – chaqa, qutirish kasalliklarini davolashda amal qilish 3 marta takrorlangan va Allohning izni ila bemorlar shifo topgan. Eshmuhammad xalifa “Mangu buloq” yonidagi hujrasida ma‘lum vaqt yashab, u yerni muridlari orasidan Parpiga vaqtinchalik boshqaruvini topshirib, o‘zi esa qolgan muridlari bilan Kouldi koni tomonda tepalik manzilda yer ostiga “Qorixona” g‘or kavlab tog‘lik aholiga ilm berish uchun chiqib ketadi. Toshkent viloyati Ohangaron tumanidagi “Parpi ota”(“Avliyo ota”) ziyoratgohini aslida naqshbandiya – mujaddidiya tariqati piri avliyo zot Eshmuhammad xalifa tashkil etganligi sabab “Avliyo ota” deyilsa, so‘ng murid(shogird)i Parpi bu yerda pir(ustoz)i Eshmuhammad xalifaning faoliyatini davom ettirganligi uchun keyinchalik ziyoratgoh Parpining nomi bilan xalq orasida “Parpi ota” deb atalib ketgan. Ziyoratgoh Buyuk ipak yo‘lining o‘tish tarmog‘ida joylashgan bo‘lib O‘sh, Qo‘qon xonligiga boruvchi Qamchiq va Kandir dovon yo‘li o‘tgan, ikkinchi tomondan Shosh, Samarqand, Oltin O‘rda, Chimket, Turkistonga boradigan savdo karvon yo‘llari o‘tgan, atrofida qabriston, qishloqlar va keng maydon bo‘lib, unda uloq choptirish, Navro‘z kabi turli sayl bayramlari nishonlangan, ikki qavatli “Ko‘k masjid” tashkil etilib, Xayt, juma namozlari o‘qilgan. XX asr boshlarida karvonsaroylar faoliyat ko‘rsatgan, ya‘ni 1950–1960 – yillargacha saroylar mavjud bo‘lgan. 1965 – yil Olmaliqda Kambinat AGMK qurilib, bu yerda ham oxak zavodi ishga tushirilgan. “Parpi ota”(“Avliyo ota”) ziyoratgohidagi tepalik Sherobod tepaligi deyiladi, unda katta buloqning tubida ummon bor, bu joyni SSSR hukumati tomonidan portlatilgan va traktorlari ham kavlash vaqtida qulab tushavergan. “Parpi ota”(“Avliyo ota”) ziyoratgohida 2003 – 2004 – yillarda A.S.Hasanov ilmiy tadqiqot ishlarini olib borib magnit maydoni borligini, bu yerda elektr magnit maydonining kuchlanishi yuqoriligi, inson yurganida bu yerdagi toshlarda qisman magnititning joylashgani hisobiga magnit maydoni to‘lqini yuzaga kelishi, komps bilan tekshirilganda ziyoratgohning nuqtasi bor shu yerda ko‘rsatmaydi, ya‘ni G‘arbni Sharq, Sharqni esa Janub ko‘rsatadi, o‘sha nuqtada o‘ng qo‘l.



chap qo'lga aylanib qolishi, bu yerda hamma narsa teskari bo'lib ko'rinishi, oddiy elektrodni qo'lda ushlab yurganda avval ular bir biriga tortishib, so'ng bir biridan qochishini takidlagan[5].



Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon barpo etgan ziyoratgoh keyinchalik murid(shogird)i Parpining nomi bilan atalib ketgan. Toshkent viloyati Ohangaron tumani “Parpi ota” ziyoratgohida Shayx Eshmuhammad xalifaning 6 – avlodi Sevaraxon ota – onasi bilan ziyoratda(02.01.2020).

“Parpi ota”(“Avliyo ota”) ziyoratgohi keyingi davrlarda o'sha atrofda yashovchi mahalliy aholi vakillari tomonidan boshqarilib kelingan, hatto “Parpi ota” (“Avliyo ota”) ziyoratgohidagi 2 tup sog'lom qatron daraxtlari 2011– yil mart oyida kesib ketilgan. Undan oqilona foydalanish, asrab – avaylash o'rniga ayrim kimsalarning moddiy manfaati ortidagi baxs munozaralar “jabrlanuvchisi”ga aylanib qolgan va qatron daraxtlari o'rinlarida kesilgan holatda yotibdi. Natijada tarixiy madaniy ekspertizaning 2011 – yil 26 – iyundagi N 7 – sonli hulosasi asosida “Parpi ota” (“Avliyo ota”) ziyoratgohi diqqatga sazovor joy sifatida ro'yxatga olindi.



“Parpi ota” ziyoratgohi daraxtlar kesilgan(2011) va yoqib yuborilgan(2020) holati.

Toshkent viloyati Ohangaron tumanida joylashgan “Qorixona” (g‘ori) ziyoratgohini aslida naqshbandiya – mujaddidiya tariqati silsilasining oltin zanjiri vakili Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirruhu tolibi ilmlarga ilm berish uchun barpo etgan. “Qorixona” g‘orida masjid, madrasa, mexmonxona, yotoqxona, omborxona bo‘lgan. Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon (q.s)ning 2 – avlod(nevara)lari Mirzaabdulla eshon va Mirzashamsiddin eshonlar “Parpi ota”(“Avliyo ota”) va “Qorixona” g‘orida buvasining faoliyatini davom ettirganliklari uchun manbalarda Mirzaabdulla eshon “Parpi ota”(“Avliyo ota”) ziyoratgohi yonidagi tepalikka, ayrim manbalarda esa “Qorixona” g‘origa dafn etilganligi takidlangan. Mirzashamsiddin eshon ham “Qorixona” g‘origa dafn etilgan, Saroy qishlog‘idan borib yashab kelgan 3 – avlodlardan Hamdamxon eshonning ayoli qabri ham “Qorixona” g‘oridan joy olgan. Mirzashamsiddin eshonning o‘g‘li Salohiddin eshon ham



ota – buvalarining yo‘lini davom ettirib, 1940 – yil “Qorixona” g‘orida aholiga ilm berayotgan vaqtida SSSR hukumati NKVD xodimlari “Qorixona” g‘oridan Salohiddin eshonga qo‘shib 4 qop kitobni ham olib ketib, yo‘q qilishgan. A.S.Hasanov “Qorixona” g‘orida bir nechta qabrlar borligini takidlagan. “Qorixona” g‘oridagi qabrlar Eshmuhammad eshon xalifaning avlodlariga tegishli. A.S.Hasanov takidlashiga ko‘ra: manbalarda bu madaniy yodgorlik XVI asrga tegishliligi, ayrimlarida esa mil.avv I – II asrlarga ta‘luqliligi aytilgan. “Qorixona” g‘orini 16 metr tepalik tagida qazish ishlari bilan qurilgan, tepalikdan yer ostiga 4 ta kirish yo‘lagi orqali o‘tiladi, yo‘lak 10 metr, 2 tomonda 3 tadan 6 ta hujra bor, 3 qavatdan iborat, 18 xona mavjud, balandligi 22 metr keladigan qiya qo‘rg‘onning ichkarisida umumiy maydoni 60 ga 48 metrli zal va yo‘laklar labirinti joylashgan, 2 yarusli labirint o‘zaro tor darchalar bilan bog‘langan, ularga tuproqli pillapoyalar orqali chiqib tushiladi. Bu yerda birorta mix, yog‘och, g‘isht, tosh, poydevor ishlatilmagan, lekin keyinchalik ichki tomon ayrim qismlarida alabaster bilan shuvoq qilingan joylari bor, ayrim hujralarining sham turadigan takch (tahmon)lari sham yoritish uchun mo‘ljallangan, tepa tomoni ham yorug‘ tushib turadigan joy bo‘lgani bu havoni aylanib turishiga ham xizmat qilgan, qishda iliq, yozda esa salqin bo‘lgan, kichik hujralarda tolibi ilmlar ya‘ni murid(shogird) talabalar ham dars qilishlari, ham tepaga chiqib yotishlariga moslab qurilgan.



Toshkent viloyati Ohangaron tumani “Qorixona”(g‘ori)ni naqshbandiya – mujaddidiya silsilasining oltin zanjiri vakili Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirruhu barpo etgan.

“Qorixona” g‘ori haqida rus arxeolog akademik olimlaridan M.E.Masson, B.Rastovsev, K.Kraxmal, O.Rastovsev o‘zlarining ajabtovur gipoteza(faraz, tahmin)larini bildirishgan, ammo birontasi bu g‘or nima maqsadda qurilganligini aniqlayolishmagan. Dastlab 1934 –

yilda “Qorixona” g‘orida tadqiqot olib borgan M.E. Masson “Qorixona g‘orining yer osti hujralari Islomda taqiqlangan sekta va mazhablarning a‘zolari uchun yashirin boshpana bo‘lib hizmat qilgan” – deb takidlagan[6]. Yuqoridagi arxeologlar ham M.E.Massondan qolishmagan “Qorixona” g‘orini tariflashda. Bu rus arxeolog akademik olimlari SSSR hukumati siyosatiga bo‘ysungan holda tadqiqot olib borib, Islom dinini, hususan, tasavvuf ilmlarini bilmaganliklari uchun tadqiqotda ulkan xatolikka yo‘l qo‘yib, o‘zlari bilmagan holatda “Qorixona” g‘orini barpo etgan avliyo zot naqshbandiya – mujaddidiya tariqati silsilasining oltin zanjiri vakili Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirruhu (va nevaralari Mirzashamsiddin eshon, Mirzaabdulla eshon, Salohiddin eshon, Hamdamxon eshonlar)ga tuxmat toshlarini otishgan. Ziyoratgohlarni tadqiq etishda islom ilmi tasavvufni bilish talab etiladi.



Naqshbandiya – mujaddidiya tariqati silsilasining oltin zanjiri vakili Shayx Xalifa Eshmuhammad eshonning katta o‘g‘li (1 – avlod) Mirzo Tojixon eshonning o‘g‘illari (2 – avlod: nevaralar) Mirzashamsiddin va Mirzaabdulloh eshonlar “Parpi ota” va “Qorixona” g‘orida faoliyatni davom ettirganliklari uchun qabrlari ham shu ziyoratgohlardadir. Ayrim manbalarda Mirzaabdulloh eshonning qabri “Parpi ota” (“Avliyo ota”) ziyoratgohi yonida deyilsa, ayrimlarida esa “Qorixona” g‘orida deyilgan. Mirzashamsiddin eshon qabri “Qorixona” g‘orida deyilgan va bu joyda yana qarindoshlar qabrlari bor. Shayx Xalifa Eshmuhammad eshonning 5 – avlodi Ilhomjon, 6 – avlodi Sevaraxon ziyoratda.



“Qorixona”(g‘ori)da Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirruhuning 6 – avlodi Sevaraxon ota – onasi bilan ziyoratda(02.01.2020).

Namangan viloyati Pop tumani G‘urumsaroy qishlog‘ida joylashgan “Odixon eshon” ziyoratgohini aslida Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon(q.s) barpo etgan, so‘ng murid(shogird)i Odixon eshon ziyoratgohda obodlikni davom ettirib vafot etgani uchun ziyoratgoh uning nomi bilan atalib ketgan. Shayx Xalifa Eshmuhammad eshonning muridi Odixon eshon Urgutdan kelgan bo‘lib, Qo‘qondagi Burgut xalifaning amakisi bo‘lgan. Odixon eshon pir(ustoz)i Shayx Xalifa Eshmuhammad eshonning barpo etgan g‘orida faoliyatini davom ettirish davrida o‘zidan o‘t chiqib ketgan avliyolardan bo‘lib, shu g‘orga dafn etilgan.



Farg'ona viloyati Beshariq tumani Navkat MFYda joylashgan ziyoratgoh "Chilmahram" g'orini Naqshbandiya – mujaddidiya silsilasining oltin zanjiri vakili Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirruhu barpo etgan. "Chilmahram" g'ori ham tolibi ilmlarga ilm berishga hizmat qilgan. "Chilmahram" g'orining chiqish tepaligi tahminan 112 metr, uzunligi 100 metr, eni 3 metr, kengligi 2 metr bo'lib, 3 ta hujradan iborat.



"Chilmahram" g'origa kiraverish ayvonli, chap tomon kichik hujra darcha(deraza)li bo'lib Shayx Xalifa Eshmuhammad eshonning katta o'g'li Mirzo Tojixon eshon quddisa sirruhuning qabr(ravza)i bor.



Shayx Xalifa Eshmuhammad eshonning katta o'g'li Shayx Mirzo Tojixon eshon (tah.1820 – 1930 – yillarda yashagan) 110 yil umr ko'rib, doim Haq va xalq hizmatida bo'ldi va "Chilmahram" g'ori ziyoratgohini obod qilib, naqshbandiya – mujaddidiya tariqatida otasi Shayx Xalifa Eshmuhammad eshonning faoliyatini davom ettirgan. Hazrat Shayx Mirzo Tojixon eshon (q.s)ning vasiyatiga ko'ra otasi Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon(q.s) barpo etgan "Chilmahram" g'ori ziyoratgohiga dafn etilgan. Bu marosimida Shayx Mirzo Tojixon eshon (q.s)ning mayitini ko'taruvchi insonlar qo'lidan huddi yuqorida muallaq ketayotganini ko'rganlardan biri (yo'ldagi qovunzorda turgan dehqon so'zi), dafn etishga borgan insonlar safi bir necha kilometr cho'zilgan. "Chilmahram" g'orida Shayx Mirzo Tojixon eshon (q.s)ning mayiti qabrga qo'yilayotganda, o'zlari "Bismillahir rohmanir rohim!" – deb boshini qibla tomonga burib olgan (qabrga qo'yuvchi so'fi takidi). Naqshbandiya – mujaddidiya silsilasining oltin zanjiri vakili Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon muridlari bilan "Chilmahram" g'ori (hozirgi Farg'ona viloyati Beshariq tumani Navkat MFY)da faoliyatlari dovrug'i atrofga tarqab ixlosmand ziyoratchilar soni ortib boradi. Rivoyatlarga ko'ra: naqshbandiya – mujaddidiya tariqati silsilasining oltin zanjiri vakili Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirruhuni sinash uchun "Chilmahram" g'origa Qo'qon xonligidan 40 ta mahram(ulamolar) yuborilgani avliyoga ayon bo'ladi va muridlariga 40 ta qoziq qoqishni buyuradi. Ulamolar g'orga yetib kelishganida otlari uchun qoqilgan qoziqlarni ko'rib, Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirruhuni avliyo ekanligini sezishib tayyorlab kelgan savollarini berishga tortinishadi. Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirruhu 40 ulamoni mehmon qilib,





o'tirish izdixomida ularning har birining tayyorlab kelgan savollarini aytib javobini ham bergan ekan. Ular bu voqeani Qo'qon xonligiga yetkazishganida ulamolar boshlig'i – "Men 40 ta mahram(ulamolar) bor desam, u yerda yana biri bor ekan" – deb baho beribdi, shu sabab ziyoratgoh nomi "Chilmahram" (chil – qirq, mahram – ulamolar) deb ataladi. Aslida 40 ta ulamo "Ilmul yaqiyin" ilm sohiblari bo'lsalar, Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirruhu esa "Aynul yaqiyin" ilm sohibi bo'lgan. Bunda "Ilmul yaqiyin" ilmidan ko'ra "Aynul yaqiyin" ilmi darajasi baland turadi, ya'ni 40 ta "Ilmul yaqiyin" ilmi birlashsa ham 1 ta "Aynul yaqiyin" ilmligiga teng bo'la olmaydi. Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon (q.s)ning dovrig'ini eshitgan Qo'qon hukmdori Xudoyorxon avliyoni sinovdan o'tkazibdi, ya'ni osh ustiga quyon go'shti deb mushuk go'shtini qo'ydiribdi. Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon (q.s)ga esa bu ish ayon bo'lib qo'llari bilan ishora qilib "pisht jonivor" deganda osh ustidagi go'sht mushuk bo'lib turib ketgan ekan. Bu zotning avliyoligini ko'rgan Xudoyorxon "Piringiz kim?" – deb 3 marotaba so'raganida, avliyo "Yuqoriga qarang!" – debdi. Xon yuqoriga qarasa pirlari ko'ringan ekan. Shundan so'ng naqshbandiya – mujaddidiya tariqati silsilasi oltin zanjiri vakili Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirruhuni sohibqiron Amir Temurning 23 avlodi Qo'qon hukmdori Xudoyorxon o'ziga pir tutadi va bu avliyo zotga hurmat ko'rsatib, tug'ilgan joyi Chorvoq Turong'iga masjid qurdirib beradi. Ruslar hukumati davrida Xudoyorxon Orenburgga surgun qilinib, so'ng Makkada hajni ado qilganda hamrohlari Shayx Xalifa Eshmuhammad eshonning qarindoshlari Abdusamad, Abdug'ani va Abubakrlar bo'lishganligi, ular hajdan qaytib Afg'onistonning Karruxiga kelib, bu yerda Xudoyorxon piri Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon ta'lim olgan dargohda umrining so'ngi qismlarini tariqat ta'limini olib o'tkazganligi, Xudoyorxon vafot etganida Shayx Eshmuhammad xalifaning qudasi tomon avlod qarindoshlari Abubakr, Abdug'ani, Abdusamadlar dafn etishganligi, Xudoyorxonning tilla muhrini Abubakr (Sahobiddinning onasining otasi) olib, qizi(Sahobiddinning onasi)ga keltirganida zargarga bergani, zargar esa xon xazinachisi Yahyoxonga topshirganligini takidlagan. Qo'qon hukmdori Xudoyorxonning qabri Afg'oniston viloyati Hirot shahri Karrux tumanida joylashgan. Boshqa manbada Qo'qon hukmdori Xudoyorxon Shayx Xalifa Eshmuhammad eshonni o'ziga pir tutganligi sabab Karruxda Muhammad Islomm shayxning muridlaridan biri Dorulomonning xonaqohida Ollohberdi xizmatida bo'lib ta'lim olib 1881 – yilda vafot etganligi keltirilgan.





Naqshbandiya – mujaddidiya tariqati silsilasining oltin zanjiri vakili Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirruhuning 6 – avlodi Sevaraxon “Chilmahram” g‘orida ziyoratda(30.05.2024).

Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon (q.s) “Chilmahram” ziyoratgohida xalq xizmatida bo‘lib, so‘ng Andijonda Shahrixonning Saroy qishlog‘ida yashab, bu yerlik aholiga ilm berib, yetuk insonlar yetishtirib chiqargan. Andijondagi Mamataliboy madrasasida mudarris shayx Islom 40 ta talabaga dars berayotganida Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon kelib qoladi va salom alikdan so‘ng mudarris tashqariga chiqib qaytib kirs, bu avliyo zot talabalarga tavhiddan dars berganini ko‘rib “Men shoxlarini o‘qitayotgan ekanman, siz ildiz(boshqa manbada barg)larini o‘qitdingiz “ – deb, Shayx Xalifa Eshmuhammad eshonning duolarini olishib, barchasi olim bo‘lib kamol topibdi. Shahrixonsoyning oldingi toshqinlari bu avliyo zot duolari bilan to‘xtagan, qishloqda suv toshqinlarini qaytarish uchun etaklariga tuproq solib soyning qishloq tomoniga sepibdi va toshqin qishloq tomon past bo‘lishiga qaramay bu yoqqa toshmabdi. Bizning hanafiy mazhabimizda avliyolar karomati haq deb e‘tiqod qilinadi. Bu avliyo zotning ishq. O‘shga.



bo'lgan “Qazoyim yetsa O'shga qo'yingerlar” – der ekan. Saroy qishlog'i oqsoqoli Niyozmatamin O'sh yo'llari notinchligini aytganida Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirruhu “Saroyliklarning baxti bor ekan” – degan. 1866 – yil Ohirat olamiga o'tganda avliyoni muborak jasadlari dahmaga olinib, so'ng qabrini o'z ichiga olgan gumbaz maqbara Saroy ahli va u zotning ixlosmandlarining ziyoratgohga aylandi.



Maqbara 1866 – yilda Niyozmatamin tomonidan ko'tartirilgan (xom g'ishtda) so'ngra 1893 – yilda Umaraliamin tomonidan pishiq g'isht bilan qayta ko'tartirilgan. Maqbarani 1995 – yilda Abdulhay Mamatisayev pishgan g'ishtdan yangidan ko'tartirdi va maqbara tashqarisida avlodlarining qabrlari orasidan 3 – avlodi Nasriddin eshonning qabri maqbara ichiga olinib, Shayx Xalifa Eshmuhammad eshonning ravzasi yoniga qo'yilgan.



Shayx Xalifa Eshmuhammad eshonning avlodlari maqbarada G'. Mirzaahmedov bilan suhbatda (30.05.2024).

Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon(q.s) yashagan xonadonda esa avlodlari bu avliyo zot taxorat qilgan va vafotida jasadi yuvilgan joyni yodgorlik sifatida qabrga o'xshatib ko'tarib qo'ygan. Sarmozor gumbaz maqbara yonidagi Saroyxonaqoh jome masjidi tarixi ham bu avliyo zot nomi bilan bog'liq. Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirruhu dastlab bu yerda kichikroq xonaqoh, hujralar qurdirgan va shundan buyon namozlar o'qib kelingan. Orada ma'lum vaqt bu masjid faoliyati to'xtab qolgan, biroq hozirgi kunda bu masjid ham xalq hashari yo'li bilan obod bo'lib faoliyatini davom ettirmoqda.



Shayx Eshmuhammad xalifaning 5 – avlodi Ilhomjon qizi 6 – avlod Sevaraxon maqbara va masjid oldida G'.Mirzaahmedov bilan suhbatda (30.05.2024).

Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirruhuning 3 – avlodi Ibrohimjon eshonning qudasi Sayyid Qosimxon o'g'li Sayyid Buzurukxon (1876 – 1953) va Sayyid Buzurukxon o'g'li Sayyid Karimxon(1903 – 1977)larning qabr(ravza)lari Toshkent viloyati Angiren shahar Ko'chbuloqdagi ziyoratgohida. Naqshbandiya – mujaddidiya silsilasining oltin zanjiri vakili Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirruhuning katta o'g'li 1 – avlod Shayx Mirzo Tojixon eshon quddisa sirruhu, 2 – avlod Mirzaabdulla eshon, 3 – avlod Ibrohimjon eshon, 4 – avlod Saodatxon, 5 – avlod Ilhomjon, 6 – avlod Sevaraxon(otasining onasining otasi tomonidan Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirruhuning avlodi bo'lsa, otasining onasining onasi tomonidan esa Sayyid Buzurukxonning avlodi).

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning avlodlaridan bo'lgan Sayyid Buzurukxon avliyo zotlardan bo'lib, hayotlik chog'larida bir qator karomatlar sohibi bo'lgan, umrining so'ngi qismlarida o'ziga qabr kavlagan va ayoliga vafot etganida shu joyga dafn etishlarini vasiyat qilgan. Sovet hukumati davrida Angiren shahar Ko'chbuloqda 1967 – yillarda lager qurilishi vaqtida ruslar Sayyid Buzurukxonning qabrini ochishganida muborak jasadi

oradan 14 yil o'tgan bo'lsa ham chirimagan holatda, ya'ni vafot etgan vaqtda qanday qo'yilgan bo'lsa shunday holatda bo'lgan, faqat soqol, tirmoqlari biroz o'sgan holatda bo'lganligini ko'rgan ruslar bu vaziyatni mahalla ahliga yetgazishgan va qabr qayta gubazli qililib yopilgan. Bu voqeadan so'ng rus islom dinini qabul qilgan va vaqtlar o'tib Sayyid Buzurukxonning avlodlari oldiga borib xonadon eshigi oldida bilmasdan qabrni ochib qo'yganligi uchun hijolat bo'lib vafot etgan ekan.

Alloh taolo Qur'oni Karimda bunday marhamat qiladi: "Ogoh bo'lingizki, albatta, Allohning valiy(avliyo)lariga xavf yo'qdir va ular g'amgin bo'lmaslar. Ular iymon keltirganlar va taqvo qilganlardir. Ularga hayoti dunyoda ham, ohiratda ham hushxabar bor. Allohning so'zlarini o'zgartirish yo'q. Ana o'sha ulug' yutuqdir"[7].



Muhammad(s.a.v)ning avlodli Sayyid Buzurukxon ziyoratgohi Toshkent viloyati Angiren tumani Ko'chbuloq qishlog'ida joylashgan. Eshmuhammad xalifaning avlodlari Ilhomjon va qizi Sevaraxonlar Muhammad(s.a.v)ning avlodi Sayyid Buzurukxonning ham avlodlari. Sayyid Buzurukxon qabri oldida avlodlari ziyoratda(31.05.2024).



Naqshbandiya – mujaddidiya tariqati silsilasining oltin zanjiri vakili Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirruhu tomonidan barpo etilgan barcha ziyoratgohlarida bu valiy zotning hayoti va faoliyati hamda ziyoratgohlari haqida to'liq ma'lumot beruvchi peshlavhalar o'rnatilishi, muzeylari tashkil etilishi, 3 D foramti elektron shakli ham yaratilishi, boshqa avliyolar qatorida tasavvuf, tarix kabi darsliklariga ham kiritilishi, Islom sivilizatsiyasi markazidan munosib joy olishi, xalqaro konferensiyalar tashkil etilishi, YUNESKO (UNESCO), AYSESKO (ISESCO) ro'yxatlariga kiritilishi, ziyoratgohlarida yotgan avlodlari qabr(ravza)lari ta'mirlanishi, ziyoratchilar uchun barcha sharoitlar yaratilishi va obod bo'lishi kerak. Zero, qiyomatda avliyolarning martaba, darajalariga hattoki, payg'ambarlar, shahidlar havas qilajak. Alloh taolo Qur'oni Karimda bunday marhamat qiladi: "Robbing tezda senga ato qilur va sen rozi bo'lursan"[8].

(Sevaraxon Karimova Ilxomjon qizi Hazrat Shayx Xalifa Eshmuhammad eshon quddisa sirruhuning 6-avlodi).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova S.I. Eshmuhammad xalifa ziyoratgohlarining aholi ma'naviy hayotida tutgan o'rni. B.M.I. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2023.
2. Mirzaahmedov G'. Saroyxonaqoh jome masjidi tarixi risola. – Shahrixon. 2013; Eshmuhammad xalifa haqida xotiralar va hikoyalar to'plami. – Shahrixon. 2017; Xonaqohpirimning siri nimada? –Shahrixon.2020.
3. Ostonaqulov I. Naqshbandiylik odamiylik silsilasi. Monografiya. Toshkent: 2025.
4. Karimova S.I. Eshmuhammad eshon xalifa ziyoratgohlari tarixi. Dissertatsiya. – Toshkent: Oriental universiteti, 2025.
5. <https://youtu.be/H8kmyYGPf5g> "Parpi ota" ziyoratgohi tarixi I Ko'xna manzillar ko'rsatuvi.
6. <https://youtu.be/AyzbüibKxfY> "O'zbekiston tarixidagi yechilmagan jumboqlaridan biri Qorixona tarixi I Ko'xna manzillar" ko'rsatuvi.
7. Yunus surasi, 62 – 63 – 64 – oyatlar.
8. Zuho surasi, 5 – oyat.